

BOLALAR NUTQINING AYRIM PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Qo'ziyev U., Nabijonova M. - NamDU

Abstract. The article discusses the origins of speech and some aspects of children's speech. In particular, is focused on issues such as egocentric speech, imitation naming in child speech.

Keywords: speech activity, speech ontogeny, children's speech, egocentric speech, speech formation mechanism.

Абстрактный. В статье рассматриваются истоки речи и некоторые аспекты детской речи. В частности, дети будут акцентировать внимание на таких проблемах, как эгоцентрическая речь, подражательное называние.

Ключевые слова: речевая деятельность, речевой онтогенез, детская речь, эгоцентрическая речь, механизм формирования речи.

Nutq ontogenezi organizmdagi nutq paydo bo'lishining tug'ilishidan to o'lguniga qadr bo'lgan izchil rivojlanishini nazarda tutadi. Hadislarda aytishicha, bola dastlab "sof fitrat" bilan tug'iladi, ularning dini ota-onasining tarbiyasi bilan bog'liq bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, bola tug'ilar ekan, til o'rganish qobiliyati bilan tug'iladi, lekin qaysi tilda gapirishi tashqi muhit ta'siri bilan bog'liq bo'ladi.

Insonlar axborotga bo'lgan o'z ehtiyojlarini qondirish uchun aloqa vositasi sifatida nutqdan foydalaniladi. Nutq – bu til imkoniyatlaridan foydalanish jarayoni bo'lib, tilning imkonyatlarini yuzaga chiqarish nutq bilan bog'liq. Bu borada juda ko'p ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Ijtimoiy aloqa vositasi sifatida keng o`rganilgan va o`rganilayotgan nutqning paydo bo`lishi va rivojlanishini tadqiq etishda kichik yoshdagi endiginatilga kirayotgan bola nutqi alohida ahamiyatga molik. Rus olimlari V.I.Loginova ,Y.S.Lyaxovskaya,V.V.Gerbova ,Ye.Strunina va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida bolalar ona tili leksikasini o`zlashtirib olishlarining o`ziga xos bir qancha xususylari yoritilgan. Bolalar nutqi kattalarnikidan ko`pgina xususiyatlari bilan farq qiladi. Hali butun gapira olmaydigan bola so`zlarda tovush o`zgarishini hosil qilishi, soddalashtirishi va uni boshqacha atashi ham mumkin. Bola so`zlar talaffuzini bosqichma-bosqich o`zlashtirib, o'z nutqini rivojlantiradi. Bu rivojlanish ijtimoiy muhitga, hududga, jumladan, shevaga ham bog`liqdir. Shuningdek, bola o'z nutq ijodkorligi orqali yoshiga mos so`z yaratishi ham mumkin. Bola hali nutq bog`lanishiniuddalay olmasdan oldin so`zlar vositasida harakatlarni,vositalarni predmetlarni turli xil tarzda atab keladi va bu orqali o'z nutqini ifodalaydi .

Prof. Z.Xolmonova nutq faoliyatining quyidagi uch qismini ko'rsatadi:

- 1.Til.
2. So`zlash qobiliyati.

3. Nutq¹.

Til tayyor holga keltirilgan birlik bo`lsa, so`zlash qobilyati ma`lum bir jamiyatga mansub shahsning shu jamiyatga mansub tildan ogohligi uning imkoniyatlaridan foydalana olish ko`nikmasidir.

Nutq jarayoni bolalarning so`z ifodalashida turlichcha o`zgarishlarga uchraydi.

Biz ushbu o`zgarihlarni quyidagi turlarga bo`ldik:

1. Bolaning nutqiy fiziologik qobiliyati bilan bog`liq ravishda tovush o`zgarishlari yuz berishi;

2. Narsa va hodisalarni nomlashda tovush va holatg taqlidni bildiruvchi so`zlarni qo'llashi.

3. Bolalarning haqiqiy so`z ijodkorligi

Endi tilga kirgan bola so`zlarni o`zi ayta oladigan darajada soddalashtiradi, va o`z nutqiga moslaydi va fonetik o`zgarish ham qiladi. So`zlarni soddalashtirish orqali buyumlarni nomini ataydi hamda bu orqali kattalar bilan aloqaga kirishadi. Tiliga mos kelmaydigan so`zlarni esa yo biroz yoki fonetik o`zgarishga uchratadi. Masalan: Olma so`zi ularning tilida “omma” “shakliga o`zgaradi. Bunda olma so`zidagi “l” harfi fonetik hodisaga uchrab tovush o`zgarishi hodisasi ro`y bergen. “Gul”ni “Dul” shaklida ifoda qiladi G harfiga til mos kelmaydiganbola uni muqobil o`zi uchun mos “D” harfiga almashtirgan. Bundan tashqari, tuxum – ququmda t harfining q ga almashishi, uzum – ujum da esa z ning j ga almashishi hodisasi kuzatiladi. Samolyot – Chamalyot da esa s hafiningch ga almashishi kuzatilgan. .Bog`cha – bochchaso`zida o`zholida bola nutqida asssimilyatsya hodisasi ro`y bergen. Bu kichik yoshdagi bolalar nutqida tovush o`zgarishi hodisasi yuz bergenligining yorqin dalilidir. Non –nanna bunda nutq jarayonida so`z soddalashtirilgan va bola nutqi uchun qulay holga bola o`zi keltira olgan. Oymoma – Omoma so`zi ma`lum guruh orasida Ommoma menga qaya jumlesi orqali o`ziga jalb manolarini o`z nurtqida ifodalasa, Omoma kulcha bey jumlasida esa undash ma`nosи ifodalangan. Bu esa nutqning kengayishiga yo`l ochgan. Pechenye – Pechchi bu so`zda so`z soddalashtirilgan va nutq osonlashtirilgan. Bu holatda bolada kattalar bilan tezroq aloqaga kirishish va nutqning shakllanishi uchun zamin yaratiladi. Fonetik jihatdan to`liq shakllanmagan bola tovushlarni mustaqil yetarli darajada jaranglata olmaydi, buning natijasida ko`proq jarangli undoshning jarangsizga almashish hodisasi yuz beradi. Bolaning so`zlarni fonetik hodisaga uchratib talafuz qilishi bu bola nutqi rivojlanishining boshlang`ich qismidir.

Bolalar nutqi so`z soddalashtirilishi natijasida tili biroz so`zlarni talaffuz qilishni o`rgangandan so`ng atrofidagi predmetlar, narsalar hamda ro`y beruvchi hodisalarni ularning harakati, tovushi orqali o`z tilida ularni atay boshlaydi va buning natijasida yangi o`ziga mos bo`lgan so`z yasay boshlaydi. Bu uning so`z ijodkorligini namoyon qiladi. Ijodkorlik esa bola nutqi rivojlanishida muhim bir bosqich sanaladi. Yangi so`z

¹ Xolmonova Z. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2018. 23-b.

ijodkorligida asosan taqlid so`zlardan foydalaniladi. Taqlid so`zlar ikkiga tovushga taqlid va holatga taqlid kabi turlarga bo`linadi. Tovushga taqlidda narsalarning tovushga taqlidini bildirib kelsa, holatga taqlidda narsalarning holatiga taqlid qilinadi.

O`zbek tilida 12 ta so`z turkumi bor, ular orasiga taqlid so`zlar ham kiradi. Yosh bolalar tilida asosa tovushga taqlid qilish orqali so`z hosil qilinadi. Predmetning harakatiga yoki narsaning chiqargan ovoziga taqlid qilib uni ataydi. Va bu bilan u nutq jarayonida o`ziga xos faollikka erishadi. Bu billan u kattalar bilan aloqa munosabat o`rnatadi. Masalan: mashina – didit / bappa / babap, it – babo`, tovuq – tutu, jo`ja – chip-chip, qush – chiriq-chiriq, soat –chiq-chiq, qo`y – baba, kungaboqar – chaqqi kabi misollarda bolalar predmetning o`zidan chiqargan ovoziga qarab unga shu ovozni nom qilib oladi va buni nutqiy faoliyatda qo`llaydi. Yuqorida tovushlarni eshitganda o`sha predmetga qarashi yoki shu predmetni ko`zi bilan qidirishi mumkin. Demak, bu o`rinda paralingvistik vositalarga ham e'tibor berish nutqning tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Bu bolaning nutqqa kirishishni istayotganligi va buni o`zi talafuz qilishga intilayotganidan dalolat beradi.

Bolalar nutqida predmetlarni o`ziga mos tarzda qayta nomlashi ham kuzatiladi. Mushukni – mosh, suvni – umma, ovqatni – ashsha, muzqaymoqni – lala, go`shtni – dishsha kabi ataydi bu so`zlar anchayin soddalashtirilgan bo`lib, bolaning talaffuz qilishi uchun judayam qulaydir. Qiziq holatlardan biri bunday atash bilan bolalar “ber” buyruq-iltimos manosini ham ifodalaydi: Lala deganda “muzqaymoqni menga ber” mazmuni tushuniladi. Taqlid so`zlardan foydalanish nutqni bola o`z qobilyatidan yosh chegarasidan kelib chiqqan holda yaratishdir.

Inson nutqining dastlabki holati, nutqning yaratilish mexanizmi, nutq ijodkorligi kabi nazariy masalalarni o`rganishda bolalar nutqi tadqiqi muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, bola tilida qaysi tovushlar birlamchi ekanligi, fiziologik jihatdan ustivor ekanligi ma'lum bo'ladi. Ikkinchidan, ijtimoiy muhitning bola nutqiga ta'siri bevosita o`rganiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Курбонова М. Болалар нутқининг морфодейктик хусусиятлари / «O`zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2019. 361-369-b.
2. Xolmonova Z. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2018.
3. Лутфуллаева Д., Давлатова Р. Ўзбек мулоқот матнининг дейктик бирликлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2011. – № 6.
4. Кларк Е. Normal states and Evaluative Viewpoints || Language. 1974. V. 50. – # 2.
5. Лутфуллаева Д., Бобохонов Л. Ўзбек тилидаги айрим тақлид сўзларнинг нутқийпрагматик хусусияти // Ўзбек тилшунослигининг долзарб

муаммолари / Республика илмий ва амалий анжумани материаллари. – Андижон: АДУ, 2010.

6. Saidova, Mukhabbat (2019) "MAN, LANGUAGE AND CULTURE," Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 1 : Iss. 4 , Article 40.

7. Jahongirova Ruxsora Nodirxon qizi, & U.Qo'ziyev. (2023). TILDA SOFLIK MASALASI. "Uchinchi Renessansda Ilmiy-Amaliy Tadqiqotlarning Dolzarb muammolari" Mavzusidagi Onlayn Konferensiyasi, 1(8), 76–78. Retrieved from <https://www.re-search.uz/index.php/conf/article/view/155>

8. Qo'ziyev Umidjon Yandashaliyevich, Sobirova Madina Mahmudjon Qizi SO'Z O'ZLASHTIRISHDA AKKUMULYATSIYA HODISASI // SAI. 2022. №Special Issue 2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/so-z-o-zlashtirishda-akkumulyatsiya-hodisasi> (дата обращения: 08.05.2023).